

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY Gvardiyasi
HARBIY-TEXNIK INSTITUTI**

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI
VA TARAQQIYOTI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR
VA YONDASHUVLAR**
respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI



Toshkent – 2021

O'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyoti: zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlar // Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2021 – 484 b.

Mas'ul muharrir: **X.D.Xaknazarov** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Mazkur to'plamda o'zbek davlatchiligi tarixi va taraqqiyoti, uning nazariy-metodologik masalalari, o'zbek davlatchiligi madaniy taraqqiyotida Renessansning o'rni, harbiy sohaning o'zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi roli va ahamiyati hamda zamonaviy tarixda xalqaro munosabatlar tizimi masalalari “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g'oyasi mazmun-mohiyatiga uyg'un holda keng ommaga yetkazilishi kabi masalalar yechimiga doir yangicha tadqiqotlar va qarashlar o'z aksini topgan. Unga O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'nggi davrda milliy davlatchilik boshqaruvini o'rganishning ahamiyati, o'rganishga oid yangicha yondashuvlarga doir taklif va tavsiyalar qamrab olingan maqolalar kiritilgan.

Maqolalardagi ma'lumotlar va dalillarning asoslilikiga mualliflar javobgardirlar.

Tahrir hay'ati: **G'.R.Mirzayev** – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Sh.N.Xotamov - O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti dotsenti.
A.U.Haydarov – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti katta o'qituvchisi.
J.Raximov – O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
D.N.Abdullayev – Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

AMIR TEMUR DAVLATINING YAQIN SHARQ MAMLAKATLARI BILAN ILK SIYOSIY MUNOSABATLARI

Abdullayev U.

tarix fanlari nomzodi

(Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti)

Amir Temur siyosat maydoniga chiqqandan keyin Movarounnahr sarhadlarini mustahkamlab, kuchli markazlashgan davlat qurishga kirishgan paytda Yaqin Sharq va Kichik Osiyoda muhim siyosiy-tarixiy o'zgarishlar yuz bermoqda edi. XIV asrning oxirgi choragida bu hududlarda mo'g'ullar tomonidan barpo etilgan Hulagular davlati parchalanib, bir qancha kichik xonliklar va mahalliy sulolalar yuzaga kelgandi. Aholi o'rtasida mo'g'ullar hukmronligiga qarshi kurash mayllari paydo bo'lgan va u tobora kuchayib bormoqda edi. Sharqshunos I.P. Petrushevskiyning qayd etishicha, Hulagular davlatining parchalanishi butun Eronda (va Yaqin Sharq hududlarida – U.A.) mo'g'ul zulmi butunlay tugatildi, degan ma'noni bildirmaydi, chunki bir qancha viloyatlarda hukmronlik hamon turk-mo'g'ul harbiy-ko'chmanchi zodagonlari qo'lida saqlanib qolgan va ular Chingizxonning buyuk Yasa qonunlariga qattiq rioya etgan holda feodal-ekspluatatorlik boshqaruv usullarini davom ettirmoqda edi⁶.

Bu davr tarixini o'rganishda ham Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Muiniddin Natanziyning «Muntaxab-ut tavorixi Muiniy»⁷, Hofizi Abruning «Zubdat ut-tavorix» («Solnomalar qaymog'i») Fasix Havofiy va Sharifxon Bidlisiylarning asarlari katta qimmatga ega. Shohruxning saroy tarixchisi bo'lgan Hofizi Abru (Shahobiddin Abdulloh bin Lutfulloh bin Abdurashid al-Havofiy)ning yuqorida aytilgan noyob asari haqida V.V. Bartold o'z maqolasida batafsil ma'lumot beradi⁸. I.P. Petrushevskiy ham bu asarni yuksak baholagan.

⁶ История Ирана с древнейших времен до конца XVIII века. Изд. Ленинградского университета, 1958. – С. 211.

⁷ Бу асарнинг учта қўлёзмаси мавжуд бўлиб, улар Санкт-Петербург, Лондон ва Парижда сақланади. И.П. Петрушевскийнинг таъкидлашича, мазкур асар бизгача етиб келмаган туркий манбаларга таяниб ёзилгани жиҳатидан ҳам муҳим аҳамиятга эга. (Кўрсатилган асар. – С. 212). Яқинда мазкур асарнинг шарқшунос Фулом Каримов томонидан форс тилидан ўзбек тилига қилинган таржимаси “Сохибқирон ҳаётидан лавҳалар” номи билан “Жаҳон адабиёти” журналида (2006 йил, 3-4 –сонлари) эълон этилди.

⁸ В. В. Бартольд. «Хафизы Аbru и его сочинения» мақоласи. Сочинение. Т. VIII. – С. 74-97.

Olim Eron va umuman Yaqin Sharq tarixini yoritishda qimmatli manba sanaluvchi Abdurazzoq Samarqandiy, Fasih Havofiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy hamda Muiniddin Isfizoriy, Muhammad ibn Hindushoh Naxchivoniy, Ibn Arabshoh, Tovma (Foma) Mesopskiy, Afanasiy Nikitin va boshqa bir qancha mualliflarning asarlariga ham qisqacha izoh bergan. Mazkur hududlar haqida qimmatbaho asarlar yaratgan keyingi davr tarixchilarining deyarli hammasi bu noyob manbalarga asoslanganlar. Biz bu davrning siyosiy manzarasini chizishda bevosita ana shu tadqiqotlarga, xususan I.P. Petrushevskiyning monografiyasiga tayanamiz⁹. Olimning to'g'ri ta'kidlashicha, mo'g'ullar asos solgan Hulagular saltanatining inqirozga uchrashi tabiiy hol edi. Hali harbiy harakatlar davom etib, yangi hududlar bosib olinayotgan paytda turk-mo'g'ul zodagonlari kuchli xon hukmronligiga muhtoj edi. XIV asrda istilolar deyarli tamom bo'lgandan keyin ularga bunday kuchli boshqaruv tizimi zarur bo'lmay qoldi.

Elxon Abu Said Bahodirxon hukmronligi davridayoq harbiy-ko'chmanchi zodagonlar orasida o'zaro qonli to'qnashuvlar yuzaga kela boshlagandi. 1319 yilda amir Irinchin, Qurmishi va boshqalar isyon ko'tardilar, oqibatda kuchli feodal guruhlarda bo'linish, ajralib chiqish holatlari kuchayib ketdi. 1335 yilda Elxon Abu Said vafot etgach, taxtga chingiziylardan bo'lgan qo'g'irchoq xonlarni chiqarish odat tusiga kirdi (shunday hol Oltin O'rda va Ko'k O'rda hududlarida ham yuz bergan edi). Mamlakatda katta nufuzga ega beshta feodal guruh mavjud edi: 1) Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning o'g'li, ulug' vazir G'iyosiddin Muhammad Rashidiy boshchiligidagi G'azonxon davrida boshlangan islohotlarni davom ettirishga moyil guruh. Ular Hulaguxonning ukasi Ariqbuqa avlodidan bo'lgan Arpani elxon qilib ko'targan edilar; 2) mo'g'ullarning oyrot urug'iga mansub amirlar guruhi Ali podshoh rahbarligida boshqa qo'g'irchoq xon – Hulagu avlodidan bo'lgan oltinchi elxon Bayduning nabirasi Musani taxtga o'tkazgan edilar. 1336 yil 29 aprelda Marog'a atrofidagi qonli to'qnashuvda birinchi guruh tarafdorlari butkul tor-mor etiladi, elxon Arpa va vazir G'iyosiddin Muhammad

⁹ Петрушевский И.П. Земледелие и аграрные отношения в Иране XIII–XIV веков. Изд. АН СССР. – М.-Л., 1960. – С. 212-216; 403-456.

Rashidiy qatl etiladi; 3) cho'poniylarga mansub guruhga mo'g'ullarning sulduz urug'i amiri Cho'ponning nevarasi Kichik Hasan («Hasan Kuchik») yetakchilik qilar, u ham taxtga qo'g'irchoq xon sifatida dastlab O'ljaytuxonning qizi Sotibekani, so'ng Sulaymonni elxon qilib ko'tarib qo'ygan edi; 4) mo'g'ullarning jaloyir urug'iga mansub guruhga amir Katta Hasan («Hasan Buzurg») yetakchilik qilar¹⁰, u ham hulagulardan bo'lgan Muhammadshohni, so'ng Shoh Jahon Temurni qo'g'irchoq elxon qilib qo'ygan edi; 5) Xuroson va Jurjondagi mo'g'ul-turk ko'chmanchi zodagonlar guruhiga oyrot urug'iga mansub Joni Qurboniylar yetakchisi Arg'unshoh esa Chingizxonning ukasi Otchigin avlodidan bo'lgan Tug'a Temurxonni taxtga o'tkazgan edi. O'zaro murossasiz kurashlardan so'ng Cho'poniylar guruhi Ozarbayjon, Armaniston va Ajam Iroqining bir qismini qo'lga kiritadi. Jaloyiriylar guruhi esa Arab Iroqida mustahkam o'rinish qoladi. Tez orada ular qo'g'irchoq elxonlar tayinlashga barham beradilar. Katta Hasan Jaloyir 1340 yilda, Kichik Hasan Cho'poniy esa 1344 yildan o'zlarini mustaqil hukmdor deb e'lon qiladilar¹¹.

Shunday qilib, Hulagu saltanati o'rnida quyidagi davlatlar paydo bo'ladi: 1) Ajam Iroqi, Ozarbayjon va Armanistonda Cho'poniylar; 2) Arab Iroqida Jaloyiriylar (ular 1359 yilda Cho'poniylarni yengib, ularga qarashli o'lkalarni ham egallab oladilar; 3) G'arbiy Xuroson va Jurjonda elxon Tug'a Temurxonning davlati. Bu davlat amalda Joni Qurboniy avlodlari tomonidan boshqarilardi; 4) Sharqiy Xuroson va Afg'onistonda Kurt (kart)lar davlati. Poytaxti Hirot; 5) Hamun ko'li havzasida Seiston maliklari davlati; 6) Kirmon va Yazdda Muzaffariylar davlati; 7) Fors va Isfahonda Injuiylar davlati. 1353-1357 yillar oralig'ida bu davlat Muzaffariylar tomonidan bosib olingan; 8) Katta va Kichik Luristonda otabeklar hukmronligi; 9) Gilon va Mozandaronda har biri amalda mustaqil hisoblangan o'nga yaqin bekliliklar; 10) Xurmuz ko'rfazi davlati. Janubiy Arabiston, Hindiston va Xitoy bilan dengiz savdosi yo'lga qo'yilgani hamda Fors ko'rfazidan marvarid olingani tufayli bu vositachi

¹⁰ Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи. Перевод, предисловие, примечания и указатели – Д.Ю. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – С. 19.

¹¹ История Ирана... – С. 217.

davlat kuchli yollanma qo‘shin va flotga ega edi. Bu davlatlarning har biri mayda feodallarning harbiy-ma‘muriy birlashmasidan iborat bo‘lgan¹².

XIV asrning o‘rtalarida feodal tarqoqlik va o‘zaro urushlardan tinkamadori qurigan aholi orasida yuqoridagi hududlarda xalq qo‘zg‘olonlari bo‘lib o‘tadi. Ozodlik va tenglik shiori ostida o‘tgan bunday isyonlar natijasida G‘arbiy Xurosonda sarbadorlar davlati (1337–1381) Mozandaronda sayyidlar davlati (1360–1392) ham tashkil topadi¹³.

Keyinchalik Arab Iroqi hamda Kichik Osiyoning ayrim hududlarida turkmanlarning Qoraqo‘yunli va Oqqo‘yunli sulolalari ham yuzaga chiqadi.

Bu yillarda Yaqin Sharqda poytaxti Qohira bo‘lgan Mamluklar sultonligi ham kuchli hukmronlik o‘rnatgan bo‘lib, Shom (hozirgi Suriya), Hijoz hududlari ularga to‘la bo‘ysunar edi. Parchalanib borayotgan Hulagu saltanati hududlarini qo‘lga kiritib, o‘zaro bo‘lib olish Misr mamluklari va Oltin O‘rda xonlarining azaliy orzusi bo‘lib, ularning birgalikda tuzgan maxfiy harbiy-strategik rejasi shunga qaratilgan edi (bu haqda keyingi boblarda maxsus to‘xtalamiz – U.A.).

Hulagu saltanati o‘rnida yuzaga kelgan feodal davlatlarda aholi shafqatsiz talanib, xonavayron qilinib, jabr-zulm nihoyatda kuchayib ketgan edi. I.P. Petrushevskiy Muhammad ibn Hindushoh Naxchivoniyning fors tilida yozilgan «Dastur al-kitob» asariga tayanib yozishicha, Hasan Buzurg va uning vorisi Uvays (1356–1375) davrida Jaloyiriylar G‘azonxonning islohotlarga asoslangan siyosatini davom ettirishga harakat qilganlar. Ularning raqiblari cho‘poniylardan Hasan Kichik va Malik Ashraflar aholiga zulmni nihoyatda kuchaytirib, fuqarolarga tegishli yerlarni tortib oladilar. O‘troq mahalliy aholining ulug‘lari madad so‘rab Oltin O‘rda xoni Jonibekxonga murojaat qilishga majbur bo‘ladi. U katta qo‘shin bilan Tabrizga kelib (1356), Cho‘poniylar hukmronligiga barham beradi. O‘rta Sharq hukmdorlari orasida eng yovuzlaridan biri deb ta’riflangan Malik Ashraf xalqdan talab olgan oltin, kumush va boshqa qimmatbaho boyliklarini xachirlar va tuyalarga ortib qochadi (aytishlaricha, 2800 xachir va 7000 tuyaga ikki million

¹² Петрушевский. Земледелие... – С. 411.

¹³ Шу ерда.

kilogrammga yaqin yuk ortilgan ekan). Jonibekxonning buyrug‘i bilan u qo‘lga tushiriladi va qatl etiladi. Oltin O‘rdadagi besaranjomliklar tufayli Jonibekxon o‘z mamlakatiga qaytishga majbur bo‘ladi¹⁴.

Bu parcha o‘rta asr feodallarining tipik qiyofasi hamda xalq qay darajada talangani haqida yaxshi tasavvur beradi. I.P. Petrushevskiy Muzaffariylar sulolasining yirik vakillaridan biri bo‘lgan amir Muboriziddin Muhammad (1313–1359)ning zolimliklari haqida Mirxond va boshqa tarixchilar bildirgan fikrlarni keltiradi. Yovuzlik va zolimlikda nom chiqargan bu hukmdor hatto Qur‘on o‘qiyotgan paytda ham tilovatni to‘xtatib, huzuriga keltirilgan «jinoyatchi»ni o‘z qo‘li bilan chopib o‘ldirar va hech narsa bo‘lmagandek, yana Qur‘onni kelgan joyidan o‘qib ketaverar ekan. U o‘z hukmronligi davrida 800 ga yaqin kishini ana shu tarzda qatl etgan¹⁵.

Bu zolim hukmdor o‘z o‘g‘li Shoh Shujo (1359–1384) tomonidan taxtdan ag‘dariladi va ko‘zi ko‘r qilinib, zindonga solinadi¹⁶. Bu haqda XVI asr kurd tarixchisi Sharifxon Bidlisiyning «Sharafnoma» asarida ham ma’lumot berilgan¹⁷. Mazkur asarda XIV asrda Yaqin Sharq va Eronda bo‘lib o‘tgan voqealar, mayda hukmdorlar o‘rtasidagi o‘zaro urushlar manzarasi qisqa lavhalarda xolis tasvirlangan. «Sharafnoma» Amir Temurning Yaqin Sharqdagi siyosati va turli hukmdorlar bilan munosabatlarini o‘rganishga ham ma’lum darajada yordam beradi.

Hukmdorlarning bunday shafqatsizligi va zolimligi tanazzulga uchragan Yaqin Sharq mamlakatlaridagi siyosiy-iqtisodiy ahvol qay darajada yomonlashganini ko‘rsatib turibdi. Xalqni ezish, adolatsizlikni avj oldirish va o‘zaro nizolarga berilib, mamlakat taqdirini o‘ylamay qo‘ygan zolim hukmdorlar uzoqqa bora olmasligi tarixdan ma’lum. XIV asr o‘rtalarida – Amir Temur tarix sahnasiga chiqib, Movarounnahrda markazlashgan, adolatli qonunlar bilan boshqariladigan davlat barpo etib, aholiga har qanday ziyon-zahmat yetkazishga chek qo‘ygan bir paytda

¹⁴ История Ирана... – С. 220.

¹⁵ История Ирана... – С. 219–220.

¹⁶ История Ирана... – С. 220.

¹⁷ Шарафхон Бидлиси. Шараф-наме. – М., 1976. – С. 79. (В этом году (760/1358-59) Шах Шуджа схватил своего отца Мубариза, ослепил по причине допускаемой [в отношениях] с эмирами и детьми грубости, заточил в одной из крепостей Фарса и вместо него восшествовал на султанский престол).

Yaqin Sharq mamlakatlari ana shu tarzda parchalanib, siyosiy-iqtisodiy inqiroz botqog‘iga botib ketgan edi.

MUNDARIJA

	Kirish soʻzi	3
<i>Abdullayev D.N.</i>	Oʻzbek davlatchiligi tarixida mukofotlash tizimi	6
<i>Abdullayev U.</i>	Amir Temur davlatining Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ilk siyosiy munosabatlari	9
<i>Abdullayeva M.I.</i>	Oʻzbek davlatchiligi tarixi boshqaruv masalalari	14
<i>Abduraimov D.</i>	Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosatida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlik masalasi	18
<i>Abduxalikov S.</i>	Sivilizatsiyani dialektik madaniy tushunish	22
<i>Ashrapov B.B.</i>	Dunyo mamlakatlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish borasidagi tajribasi	27
<i>Ajdueva G.</i>	Демографическое развитие и образ жизни туркмен в Узбекистане	31
<i>Azamatova G.B.</i>	Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimining asosiy yoʻnalishlari	35
<i>Baxronov Sh.T.</i>	Turkistonda ishbilarmonlik tarixidan (XIX asr oxiri – XX asr boshi)	39
<i>Begimkulov J.</i>	Yangi Oʻzbekistonda tibbiyot sohasidagi oʻzgarishlar (Gʻallaorol tumani misolida)	43
<i>Бекбаулиева Н.Б.</i>	Концепции исторических событий 1873 года	47
<i>Bekmurodov T.P.</i>	Davlatchilik tarixida ideografik lugʻatlar va ularning ona tili taʼlimida tutgan oʻrni	50
<i>Bobojonov I.U.</i>	Oʻzbekistonda fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlarini takomillashtirish davlat eʼtibor markazida	54
<i>Boboyev F.</i>	Oʻzbekistonda sovet hokimiyatiga qarshi kurashni tugatishda koʻngillilar otryadining roli (1925-1926 yy)	58
<i>Botirov F.A.</i>	Afgʻonistondagi fuqarolik urushi va uning oqibatlarini xususida	61
<i>Boxodirov I.</i>	XIX asr oʻrtalarida Qoʻqon xonligida harbiy sohada	64
<i>Burxanov T.M.</i>	Yosh harbiylarning maʼnaviy madaniyatini yanada takomillashtirish	70
<i>Chiniboyev J., Davurov K.N.</i>	Jadidchilikning maqsad va vazifalari va davlatchilik tariximizda tutgan oʻrni	73
<i>Davletov R.</i>	Mirzachoʻlni oʻzlashtirishda aholini koʻchirish jarayonlari xususida (1946-1970 y.y.)	77
<i>Davronov X.Z.</i>	Usmonlilar imperiyasi madaniyati rivojida buyuk meʼmor-Xoja Sinonning oʻrni	80
<i>Doniyorov A.X., Abirov V.E.</i>	Oʻzbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining nazariy-metodologik masalalariga doir	84
<i>Djurayev D.A.</i>	Harakatlar strategiyasida millatlararo munosabatlar siyosatining amalga oshirilishi	89
<i>Elimov L.Sh.</i>	Xorij tarixchilari nigohida Amir Temurning Xuroson yurushi masalalari	92
<i>Ergasheva M.S.</i>	Oʻzbekiston – tub islohotlar davrida ildam odimlamoqda!	97
<i>Ernazarov D.Z.</i>	Global nodavlat notijorat tashkilotlarining xalqaro munosabatlar tizimiga taʼsirining tahlili	102
<i>Ernazarov Sh.E.</i>	Yangi Oʻzbekiston gʻoyasi: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari	106
<i>Fayzullayeva V.J.</i>	Oʻzbekistonda xalq taʼlimi tizimini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar xususida	110
<i>Khamidova D.M.</i>	Introduction of english economic terms to the uzbek language as a result of public development and their semantic	

	relashionship	114
<i>Haydarov A.U.</i>	Qurolli Kuchlarda harbiy kadrlarni tayyorlashning huquqiy asoslari	117
<i>Haydarov I.M.</i>	O'zbekistonda xalq xo'jaligi kengashining tashkil etilishi jarayonlariga doir (1950-1960 yillar)	123
<i>Haydarov M.M.</i>	O'zbekiston SSRda yakkapariyaviylik tizimini joriy qilinishi va uning oqibatlari (XX asrning 20-30 yy.)	126
<i>Haydarov Y., Jumaqulov N. Hoshimova M.M.</i>	O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishning nazariy-metodologik masalalari	131
<i>Ithomov Z.A.</i>	O'zbekiston tarixidagi migratsion jarayonlar mazmun mohiyati	137
<i>Imomov B.X.</i>	XX asr boshlarida Turkistonda tarixiy ilmiy qarashlarning rivojlanishi: Aburauf Fitrat	140
<i>Inomov O.U.</i>	Turkiy tilli davlatlar Kengashida O'zbekiston va Turkiya Respublikalarining o'rni va roli	145
<i>Iskandarov Sh.A.</i>	Jaloliddin Manguberdi: ziddiyatli zamonning vatanparvar o'g'loni	149
<i>Ismailov A.F. Ismatullayev F.O.</i>	O'zbekistondagi arablarning etnomadaniy identikligi: an'anaviylik va zamonaviylik	155
<i>Ismatullayeva Z.Sh. Isroilov B.E., Xonnazarova M.T. Jo'rayeva N.O.</i>	IX-XII asrlarda O'zbekistonda ilm-fan ravnaqi	158
	O'zbekiston - Yevropa Ittifoqi: transport - kommunikatsiya sohasidagi aloqalar tarixidan	163
	O'zbekistonning turizm sohasidagi xalqaro hamkorligi	168
	Vorisiylik an'analari milliy yuksalishning muhim omili	172
<i>Jurayev S.S. Kadirov M.B.</i>	Buxoro shahar hunarmandchilik ziyoratgohlari: topografik tahlil	178
<i>Kamiljanov M.N.</i>	Qo'qon xonligining Rus bosqiniga qarshi xalq harakatiga doir	180
<i>Karimov H., Mustafoyev N.G', Karimov O'.U.</i>	O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ob'ektiv omillar	185
<i>Madraximova G.S.</i>	Milliy tiklanishimizdan – milliy yuksalishimiz jarayonida jaholatga qarshi – ma'rifat g'oyasi	188
<i>Mahmudov I.A.</i>	Davlatchiligimiz tarixida Qo'qon xonligining harbiy sohasi hamda siyosiy boshqaruvi	192
<i>Mamatov Sh.D. Mamatqobilov T., Burxonov T. Mamatqulov D.M.</i>	Xalqaro iqtisodiy aloqalar va umuminsoniy, axloqiy qadriyatlarning o'zaro bog'liqlik jihatlari	198
<i>Makhmasobirova Y.U.</i>	Uyg'onish-o'zbek davlatchiligi madaniyat taraqqiyotida keskin burilishlar davri	202
<i>Maxsodov M.I. Maxkamov E.M.</i>	Tarixiy siymolar jasoratining yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni	205
<i>Mirkamilova Z.M. Mirzayev G'.R.</i>	Institutim mening faxrim	209
	Mamlakat taraqqiyotining asosiy konsepsiyasi	211
	Zamonaviy davlatchilik taraqqiyotida milliy tarbiyaning roli (Yapon xalqining milliy tarbiyasi misolida)	215
	French vector in the modern foreign policy of Uzbekistan: an overview	220
	O'zbek davlatchiligi tarixida "Temur tuzuklari"ni tutgan o'rni	224
	Milliy gvardiyaga kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda harbiy ta'lim muassasalarining roli	229
	Islom huquqshunosligi buyuk allomalari	232
	O'zbekiston va Qirg'iziston respublikalari savdo-iqtisodiy	

	hamkorligining bugungi holatiga doir	237
<i>Murodov A.I.</i>	Yoshlarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda	
	zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishga doir	243
<i>Musinov N.</i>	O'zbekistonda mustaqillik yillarida ma'naviyatning milliy	
	taraqqiyotida Islom Karimov asarlarining o'rni	247
<i>Nizomiddinova M.K.</i>	Ikkinchi jahon urushi va uning O'zbekiston uchun oqibatlari	252
<i>Nosirov F.Sh.,</i>	Harbiy xizmatchilar faoliyatida "milliy tiklanishdan – milliy	
<i>Ergashev H.</i>	yuksalish sari" g'oyasining o'ziga xos ahamiyati	256
<i>O'rmonov H.</i>	Nizom ul-mulkning "Siyosatnoma" asari o'zbek davlatchiligi	
	tarixidagi muhim manba sifatida	260
<i>Oblaqulov L.</i>	Markaziy Osiyoga deportatsiya qilingan xalqlar	
	tarixshunosligidan	265
<i>Oltiboyev A.M.</i>	O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari hamkorligining	
	dolzarb masalalari xususida	270
<i>O'tkirov A.F.</i>	O'zbek davlatchiligi tarixida Amir Temur siymosi	274
<i>Pardayev A.A.,</i>	Sohibqiron Amir Temur saltanatida harbiy qo'shinlarning	
<i>Hujayorov A.O.</i>	tuzilishi va tarkibi	276
<i>Qayumov A.</i>	Buxoro xonligida "otaliq" va "biy"lar yoxud Mahmudbiy	
	otaliq	283
<i>Qodirov D.H.</i>	Abu Homid G'azzoliyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari	288
<i>Qodirov O.S.</i>	O'rta asr Sharq Renessans davrida dinning o'ziga xosligi	292
<i>Qodirov Q.A.</i>	Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish	
	konsepsiyasida - g'oyaviy tarbiya modernizatsiyasi	296
<i>Qoraboyev A.A.</i>	Harbiy intizom tarixi va uni takomillashtirish omillari	300
<i>Qoryog'diyeva D.B.</i>	O'zbekistonning Yevropa xalqlari bilan madaniy muloqotida	
	"O'zbekiston-Germaniya" do'stlik jamiyatining o'rni	304
<i>Radjabov A.A.</i>	O'zbek davlatchiligi tarixida harbiy islohatlar va taraqqiyoti	309
<i>Rajabov J.</i>	Jadidlar faoliyati va asarlari - harbiy xizmatchilarni	
	vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vositasi sifatida	313
<i>Rashidov R.R.</i>	Amir Temur saltanatida xavfsizlikni ta'minlashda razvedka	318
	xizmatining o'rni va roli	
<i>Расулов Ш.</i>	Формирование государственной службы Республики	323
	Узбекистан	
<i>Rasulova N.S.</i>	Chavgon – turkiy xalqlarning milliy o'yini	327
<i>Rahimov J.</i>	Harbiy sohaning o'zbek davlatchiligi taraqqiyotidagi roli va	
	ahamiyati	331
<i>Raximov K.M.</i>	Yo'l va unda harakatlanish qoidalarining vujudga kelishi va	
	rivojlanish bosqichlari tarixiga doir	337
<i>Rayimov F.U.</i>	"Turkiston to'plami" ning qisqacha tavsifi	344
<i>Saitmurodova M.U.,</i>	O'zbek tili darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash	
<i>Saitmurodov M.U.</i>	dolzarb masala sifatida	347
<i>Saminjonov M.A.,</i>	Qo'qon xonligidagi harbiy siysiy boshqaruv va qo'shinning	
<i>Ashrapov Sh.I.</i>	tarkibiy tuzilishi	350
<i>Sattorov A.A.</i>	Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligini mustahkamlashda	
	migratsiya muammolarni bartaraf etishning o'rni	357
<i>Saydullayeva G.S.</i>	Ajdodlar yaratgan ma'naviy va madaniy boyliklarning	
	ahamiyati xususida	362
<i>Shoxakimov A.R.</i>	"Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi	
<i>Madraximova G.S.</i>	taraqqiyotning muhim omili	366
<i>Shukurov R.</i>	Buxoro amirligi diplomatik munosabatlari tarixi rossiyaning	
	zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlarida	369
<i>Sodiqov M.</i>	Harbiy to'qnashuvlarni oldini olishning ijtimoiy xususiyatlari	374

<i>Sultonov K.A.</i>	Amir Temurning milliy davlatchiligimiz tarixidagi oʻrni	377
<i>Suyundikov L.A., Xodjimatomov A.A.</i>	Oʻzbekiston tarixini oʻrganishning ahamiyotiga doir	382
<i>Tashkenbaeva D.A.</i>	Вопросы культурного наследия эпохи Ренессанса в работах российских и западных исследователях	386
<i>Tashkenbaev T.T.</i>	Гармонично развитая личность - основа сильной молодежной политики: опыт Узбекистана (на примере Восточного Ренессанса)	389
<i>Tolipov A.A.</i>	Yoshlar orasida jinoyatchilikni oldini olish muammolarining tarixshunosligiga doir	393
<i>Turayeva S. R.</i>	Insoniyat taraqqiyotining XX- asrini "Uran davri" deb atash davr taqozosidir	396
<i>Turdiyev B.S.</i>	Maʼnaviy yangilanishlarimiz jarayonida millatlararo munosabatlar tizimi	400
<i>Turovov Y.</i>	Milliy oʻzlikni anglash - milliy yuksalish asosi	405
<i>Umarov S.Y.</i>	Germaniya tashqi siyosatida Oʻzbekiston omili	410
<i>Usarov S.R.</i>	Oʻzbekiston Respublikasining Indoneziya, Malayziya, Singapur bilan xalqaro hamkorligi	413
<i>Usmonov U.A.</i>	Oʻzbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari	417
<i>Xaknazarov X.D.</i>	Harbiylar kundalik hayotini oʻrganish: xorijiy tajriba va milliy amaliyot	421
<i>Xoʻjamov M.E.</i>	Oʻzbekiston – turizm salohiyati boy davlat	427
<i>Xolboyev M.K.</i>	Oʻzbekiston sogʻliqni saqlash tizimida xorijiy mamlakatlar ishtiroki	431
<i>Xotamov Sh.N.</i>	Oʻzbek davlatchiligining tarixiy ildizlari (Afrosiyob misolida)	435
<i>Xotamova D.N.</i>	Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari gʻoyasini yoshlar ongiga singdirishda milliy qadriyatlarni oʻziga xos ahamiyati	441
<i>Xudoyqulov Y.A.</i>	“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” gʻoyasi Uchinchi	
<i>Irgashev D.I.</i>	Renessansning poydevori sifatida	446
<i>Xurramov M.K.</i>	Oʻzbekiston – Qozogʻiston Respublikalari munosabatlari konseptual asoslarining tarixiy jihatlari	448
<i>Xursandov A.S.</i>	Amir Temur davlat boshqaruvida harbiy vatanparvarlik tuygʻusining ustuvorligi	453
<i>Yakobjanov J.J.</i>	Qoʻqon xonligi tarixshunosligining davrlashtirish masalasi	457
<i>Yodgorov Z.Sh.</i>	Yangi Oʻzbekiston jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish yoʻlida	463
<i>Yuldashev S. Oʻ., Ahmedova Oʻ.</i>	Taraqqiyotning yangi bosqichida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning oʻrni	466
<i>Yusupov O. Y.</i>	Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni taʼminlash masalalari	469
<i>Zulfiqorov Sh.X.</i>	Davlat boshqaruvini demokratlashtirish sohasidagi tadrijiy islohotlar	473

**O‘ZBEK DAVLATCHILIGI TARIXI
VA TARAQQIYOTI: ZAMONAVIY TADQIQOTLAR
VA YONDASHUVLAR**
respublika ilmiy-amaliy konferensiya
MATERIALLARI

2020 yil 23 dekabr, Toshkent

Texnik muharrir: Kuldashev I.X.

Bosishga ruxsat etildi: 13.01.2021. Buyurtma: № 4. Format 60x90/16.
Times New Roman garniturasida bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hajmi 30,25 b.t. Adadi: 5 nusxa.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti bosmaxonasi